

Samarqandga sayr-u sayohat

“Gidrotexnika qurilishi” fakulteti 2 - bosqich 6 - guruh talabalari va guruh murabbiyi “Nazariy va qurilish mexanikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi E.Toshmatov rahbarligida jannatmakon yurtimizning Samarqand shahriga sayohat qilishdi. Yurtimizdagi boy tarix va madaniyatga ega shaharlar orasida Samarqandning alohida o‘rni bor. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahri tarixiy obidalar bilan ajralib turadi. Institutimiz talabalari Registon majmuasi, Go‘ri Amir maqbarasi va Shoxi Zinda majmuasida bo‘lib, mashhur me‘moriy obidalar bilan tanishdilar.

Qadimiy Samarqandga tashrif buyuruvchi ko‘plab sayyohlar Go‘ri Amir maqbarasini jahonga mashhur va O‘rta Osiyo me‘morchiligining noyob asari sifatida e‘tirof etadilar. Maqbaraga temuriylar oilasi va sulolaning merosxo‘rlari dafn etilgan. Shuningdek, dovrug‘ qozongan Shohi Zinda majmuasi Samarqandning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, sharq musulmonlarining muqaddas ziyoratgohlaridan biri hisoblanadi. Registon maydonidagi Ulug‘bek, Sherdor va Tilla-Kori madrasalarining noyob binolari shahar go‘zalligiga ko‘rk qo‘shish bilan ajralib turadi. Bu va boshqa ko‘plab inshootlar jahon me‘morchiligining noyob durdonalari tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Samarqand zaminiga qadam bosgan inson, avvalo, o‘zida ruhiy tetiklikni his etadi. Azim shaharning musaffo havosi va zilol suvi esa tasvirlab bo‘lmas quvvat bag‘ishlaydi. Basharti, bu ta‘rif-u tavsiflar shunchaki emas, balki ularning zamirida ayni haqiqat yotibdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, ko‘hna Samarqand ne-ne avliyolar, buyuk allomalar va ulug‘ zotlar abadiy qo‘nim topgan muqaddas zamin hisoblanadi. Toshkent shahridan tashrif buyurib, ushbu muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish albatta, insonga tetiklik va ruhiy zavq bag‘ishlaydi. Samarqandga qilgan safarimiz talabalarimizda unutilmas taassurot qoldirdi.



“Nazariy va qurilish mexanikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi E.Toshmatov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov